
OAV VAKILLARI MAHALLABAY AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR BILAN TANISHDILAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi va Farg'ona viloyati hokimligi tomonidan tasdiqlangan rejaga asosan Oltiariq tumanida mahallabay ishlash hamda hokim yordamchilari tomonidan amalga oshirilgan ishlar bilan tanishish maqsadida jurnalist va blogerlar ishtirokida matbuot anjumani va press-tur tashkil etildi.



Ishtirokchilar tumanda yangi o'zlashtirilgan ming gektarlik tokzorlarda bo'lib, u yerda olib borilayotgan amaliy ishlar bilan tanishdilar. Shuningdek, hokim yordamchilari bilan suhbatlashib, ularning kambag'allikni qisqartirish, ish o'rinlarini ko'paytirish yo'lidagi say'-harakatlariga e'tibor qaratdilar.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-07-13 19:36:35